SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (5-jild)
2025

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V5I2Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

***№ 2 (5) – 2025***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY'ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot boʻlimi psixologik xizmat boshligʻi.

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Roʻyxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari boʻyicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar roʻyxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 2-son (Fevral, 2025). - 630 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Matkarimova Sadoqat Maqsudovna*
SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI ........ 13-19

*Matyakubov Xamdam Xamidjanovich*
MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYALARI VA OROLBOʻYI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR OʻRTASIDAGI OʻZARO TAʼSIR VA HAMKORLIK ........ 20-24

*Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin*
TURKISTONDA JADIDLARNING TAʼLIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN ........ 25-29

*Хуррамова Саодат Хабибовна*
ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА ........ 30-37

*Toʻychiyeva Dilnoza Ikrom qizi*
ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI ........ 38-44

*Elboyeva Shaxnoza*
AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR VA BU BORADA OʻZBEKISTON TAJRIBASI ........ 45-50

*Kanimkulov Olimjon, Xikmatova Oʻgʻiloy*
TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BOʻLGAN TARIXI HAQIDA ........ 51-54

*Tojiev Alisher Sultannazirovich*
MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI ........ 55-60

*Bekbayev Bekjon*
XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN ........ 61-67

*Salayev Umrbek Kadambayevich*
JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BAʼZI CHIZGILAR ........ 68-71

*Roʻziyeva Mashxura Abdimuminovna*
LOʻLILAR IJTIMOIY HAYOTINING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 72-78

*Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi*
ICHKI SAVDO QOʻQON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876) ........ 79-84

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Kazakov Olim Sabirovich*
XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH ........ 85-89

*Исламутдинова Дина Файзрахмановна*
РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 90-98

*Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li*
QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI ........ 99-106

*Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor*
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI ........ 107-113

*Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod*
CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LARI ........ 114-121

*Aliyarov Olim Abdug'aparovich*
MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ........ 122-132

*Komilov Bakhtiyorjon*
UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA ........ 133-144

*Djumanov Saitmurod Alibekovich*
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 145-150

*Yariyev Sherzod Shukurjanovich*
DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI ........ 151-155

*Matkarimov Feruz Bekturdiyevich*
MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........ 156-160

*Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur*
DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ........ 161-166

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Yusubov Jaloliddin Kadamovich*
ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI ........ 167-175

*Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna*
FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI ........ 176-179

*Xoliqov Yunus Ortiqovich*
BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI ........ 180-184

*Berdaliyeva Sevara*
ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG" ........ 185-191

*Parpiyev Muhammadjon Tolibovich*
SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI ........ 192-197

*Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi*
IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI ........ 198-202

*Ulug'murodov Elyor Saydulloevich*
ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI .......... 203-206

*Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich*
AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING
DIALEKTIK MAZMUNI .......... 207-213

*Xasanov Boburjon Xakimovich*
EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI .......... 214-219

*Shokirov Mubin Rustamovich*
MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT .......... 220-225

*Ismoilov Maxammadixon*
HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV
MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI .......... 226-230

*Shokirov Murod Rustamovich*
YANGI O'ZBEKISTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI .......... 231-234

*Hamroyev Saidjon Sanoyevich*
YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIY ADOLATNING BARQAROR
TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI .......... 235-239

*Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li*
ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI
(TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI) .......... 240-243

*Ulug'ov Jasur Nasirdinovich*
INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING
IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI .......... 244-249

*Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li*
BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI
QARASHLARI MISOLIDA .......... 250-253

*Ibragimov Kudrat*
XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL
DAVLATLARI .......... 254-260

*Oripov Axmadjon Muxammadjonovich*
VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY
TALQINI .......... 261-267

*Ibragimova Zulayxo Karimbayevna*
RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI
VA ASOSIY KOMPONENTLARI .......... 268-274

*Abdullayev A'zam Abdiyevich*
YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM
XUSUSIYATLARI .......... 275-281

*Ochilov Azimjon Tuxtamishovich*
IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING
TARQALISHI .......... 282-285

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI


*Raxmanova Sarvinoz Alisherovna*
SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA) ........ 286-289

*Kaxarova Iroda Sidikovna*
MODAL SO‘ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH ........ 290-296

*Babadjanova Nazokat Davronbekovna*
“YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI ........ 297-302

*Sayidova Shakhrizoda Nasrulloyevna*
RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK “ULUG‘ SALTANAT” ........ 303-308

*Hatamova Kamola Toshmurod qizi*
TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA ........ 309-316

*Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna*
TERMINOLOGIYANING O‘ZBEK VA XORIJIY TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O‘RGANILISHI ........ 317-321

*Otajonova Dildor Baxtiyarovna*
SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI ........ 322-326

*Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich*
PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES ........ 327-331

*Xoshimova Oydina Shuxrat qizi*
OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O‘RNI VA RANGLAR IFODASI ........ 332-338

*Babayeva Iroda*
THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING ........ 339-342

*Fozilov Odil Yuldashevich*
USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE........ 343-346

*Raxmonova Dildora Mirzakarimovna*
JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING “BAXTSIZ KUYOV” DRAMASI MISOLIDA) ........ 347-351

*Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna*
TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI ........ 352-357

*Xamidova Sayyora Nurmatovna*
KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 358-363

*Mengboyev Azizbek Alijon o‘g‘li*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI ........ 364-368

*Hayitova Shohida Erkin qizi*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI ........ 369-373

*Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi*
SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI ........ 374-378

*Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich*
MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI ........ 379-385

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Мухитдинова Фирюза*
КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА ........ 386-393

*Uzakova Go'zal Sharipovna*
HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI ........ 394-403

*Tulaganova Gulchexra, Nurilloyev Shavkat*
INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ........ 404-414

*Yakubova Iroda Bahramovna*
MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI ........ 415-419

*Obidov Tolibjon Avezxanovich*
JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI ........ 420-425

*Tuxtashev Sherzod Azimovich*
JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI ........ 426-430

*Maxamatov Maxmud Maxamataminovich*
INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMOYA QILISH MASALALARI ........ 431-436

*Rahmatov Elyor Jumaboyevich*
BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI ........ 437-441

*Jumaniyozova Dilfuza Kamolovna*
IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIJ TAJRIBASI ........ 442-447

*Shermatov Nuriddin*
RAQAMLI ERADA SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA ........ 448-455

*Juraeva Asal*
EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS ........ 456-461

*Собиров Саидбек Махмудович*
ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ ........ 462-467

*Nurbayev Muzaffar Erkinovich*
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 468-478

*Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o‘g‘li*
INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI ........ 479-485

*Xabibullayev Azizillo Lutfullo o‘g‘li*
SUN'IY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR ........ 486-491

*To‘xtayev O‘ktamjon Zarifjon o‘g‘li*
MURAKKAB ASHYOLARNING O‘ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI ........ 492-500

*Yusupov O‘ktamboy*
KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI ........ 501-509

*Murodxonov Muhammadnur*
XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O‘RNI ........ 510-518

*Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса*
МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ ........ 519-523

*Qudratillayev Xazratali Zokirjon o‘g‘li*
JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI ........ 524-530

*Umarov Abbosjon Asliddin o‘g‘li*
SUG‘URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI ........ 531-536

*Хайдарова Хилола Анваровна*
ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ ........ 537-542

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Ibraximov Sanjar Urunbayevich*
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIGI ........ 543-547

*Karimov Akramjon Zaynobidinovich*
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI ........ 548-554

*Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich*
7-9 YOSHLI O‘QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O‘YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ........ 555-561

*Karimov Qayum Mamashayevich*
KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O‘QITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ........ 562-569

*Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi*
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI ........ 570-576

*Qodirov Azamat Muxriddinovich*
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA ........ 577-582

*Тлеумуратова Абадан Бекбановна*
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ........ 583-585

*Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich*
TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR ........ 586-592

*Mamaziyayev Oblaberdi*
OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI ........ 593-598

*Isoqov Murod Madaminjonovich*
YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJIY MODELLARI ........ 599-605

*Nasriddinova Hulkar Komiljonovna*
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI ........ 606-610

*Allayeva Hafiza Rustam qizi*
BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI ........ 611-614

*Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna*
AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETINI ISHLASH METODIKASI ........ 615-621

*Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li*
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI ........ 622-625

*Elova Sitora Axmatkulovna*
QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI ........ 626-629

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 2 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 25 January 2025
**Accepted:** 1 February 2025
**Published:** 10 Feburary 2025

*Article / Original Paper*

# HUMAN DEVELOPMENT: ISLAMIC VALUES AND THEIR IMPACT ON SOCIAL LIFE

**Ulugov Jasur**
independent researcher
University of Economics and Pedagogy

**Abstract.** The article discusses about the role of Islam in human development. The importance and tasks of Islamic values in the development of national morals and manners were analyzed, and it was proposed to apply these values to the upbringing and education process of the young generation.

**Keywords:** islamic values, values immunity, nationality, perfect human, values viability, values prevention, moral virtue, language education, order manners, social needs.

# INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI

**Ulug'ov Jasur Nasirdinovich,**
Mustaqil tadqiqotchi
Iqtisodiyot va pedagogika Universiteti

**Annotatsiya.** Maqolada inson kamolotida Islom dinining tutgan o'rni xususida so'z yuritilgan. Islom qadriyatlarining umuminsoniy va milliy axloq-odobni rivojlanishidagi ahamiyati hamda vazifalari tahlil qilingan bo'lib, ushbu qadriyatlarni yosh avlod tarbiyasi va ta'lim jarayoniga tatbiq etish taklif qilingan.

**Kalit so'zlar:** islom qadriyatlari, qadriyatlar immuniteti, milliylik, komil inson, qadriyatlar yashovchanligi, qadriyatlar profilaktikasi, axloqiy husn, til tarbiyasi, tariqat odobi, ijtimoiy ehtiyojlar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N38

**Kirish.** Komil insonni tarbiyalash borasidagi qarashlar ming yillardan buyon davom etib kelayotgan masalalardan biri hisoblanadi. Inson kamolotga erishishda ham umuminsoniy, ham milliy qadriyatlar bilan birga diniy qadriyatlarning o'rni ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Islom dini komil inson masalasida umuminsoniy prinsiplar bilan murosa qila olganligiga ko'ra ajralib turadi.

Bugungi kundagi xalqimizga xos bo'lgan komillik tushunchasi, ma'naviy qadriyatlar va axloqiy me'yorlar asosi Qur'oni karim va hadislar g'oyalariga tayanadi. Komillik deyilganda, islom qadriyatlari, tarixiy merosi, o'zaro munosabatlar tushunilsa-da, umuminsoniy prinsiplar ham inkor qilinmaydi. Uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan xalqimizning milliy qadriyatlari bizning komillik tushunchamizga hamohangdir. Demak, bizdagi komillik uch yo'lning chorrahasida uchrashadi. Insoniy komillik biz uchun yangilik emas, aslida. U xalqimiz uchun yuksak qadriyat sifatida ulug'lanib kelinadi. Sharqona komillik dostonlarimiz, ertag-u afsonalarimiz bilan bir qatorda tashqari axloq me'yorlariga bag'ishlangan ko'plab asarlarimizda ham talqin qilingan. Sharqona qadriyat timsoli shakllanib, ideal obraz sifatida namoyon bo'la oldi.

Qadriyat fan sifatida ilmiy isteʼmolga yaqin oʻtmishda kiritilgan boʻlsa-da, qadriyatlarning tarixiy ildizlari juda qadimdir. Insoniyat yaralgandan buyon narsa-buyum, voqea, hodisa, jarayonlar uning uchun qandaydir maʼno bildirib, ularning ayrimlari oʻz qiymatiga ega boʻlgan. Bu qiymat yildan yilga oshib borishi, mukammallashishi, toʻldirilishi yoki aksincha, tarix taʼsiri ostida oʻz qiymatini yoʻqotib borishi mumkin. Inson faoliyatida foydali boʻlganlari sayqallanib, asrlarga daxldor boʻlib qoladi. Bu hol nafaqat moddiy buyumlar, balki maʼnaviyat va turmush tarziga ham tegishlidir. U insoniyatga foyda keltiradi. Zero, umuminsoniy qadriyatlar dastlab bir etnik guruh yoki millatga tegishli boʻlgan. Qadriyatlarni yashovchanligiga ichki yoki tashqi omillar oʻz taʼsirini oʻtkazishi mumkin. Ikki holatda ham qadriyatlar immuniteti ishga tushib, mavjud qadriyatlarni saqlab qolishga harakat qilinadi. Tashqi omilga, asosan, bosqinlarni misol qilib olsak, ichki omilga oʻz milliyligidan uzoqlashib, chetki taʼsirlarga berilgan yoshlar faoliyatini keltirishimiz mumkin. Har ikki holatda ham qadriyatlar profilaktikaga muhtoj boʻladi.

**Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi.** Barcha qadriyatlarni birlashtirib turadigan qizil chiziq – bu “Komil inson” masalasidir. Komil inson esa mukammal jamiyatda yuzaga keladi. Maʼnaviyat jamiyat va shaxs kamolotini taʼminlaydigan vosita sifatida maʼlumdir. Bizning milliy maʼnaviyatimizni esa Islom dinisiz tasavvur etib boʻlmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning aksariyatida xoh diniy, xoh dunyoviy boʻlsin, inson maʼnaviyati jamiyatdan uzilgan holda talqin qilinmaydi. Avvalo, insonga urgʻu beradigan boʻlsak, uning mavjudligida maʼnaviyat mujassam. “Maʼnaviyat. Asosiy tushunchalar izohli lugʻati”da insonga oʻzaro chambarchas bogʻliq boʻlgan uchta omil – tana, ruh va maʼnaviyatning majmui sifatida qaraladi. Komil insonga taʼrif berilar ekan, “Komil inson haqidagi taʼlimot insonning maʼnaviy, axloqiy, intellektual va jismoniy nuqtai nazaridan yetuklik darajasiga koʻtarilishini koʻzda tutadi”[1; 7-8-b]. -deyiladi kitobda. Islom taʼlimotida, yuqorida keltirilganidek, axloq va jism masalalariga mukammal yondashilib, oʻziga xos qadriyatlar shakllangan. Ushbu qadriyatlar insonning jamiyatdagi mavqeyini belgilab olishi uchun muhimdir.

Najmiddin Komilov “Tasavvuf” asarida komil insonlarni jamiyatning vijdoni, deb taʼriflaydi. Ammo komillikdagi jismoniy jihatlarga va u bilan bogʻliq boʻlgan qadriyatlarga ikkinchi darajali deb qaraydi. Tasavvufda ilohiyot va Alloh vasli haqida gapirilganda, aksariyat hollarda, jism yodga olinmaydi. Chunki, ilohiy qudrat oldida jism bir suratdir. “Qurʼoni karimda insonga berilgan taʼriflar ham komil insonga berilgan taʼriflardir. Hamma odamlarga nisbatan “Valaqad karramno bani Odama” (Odam bolalarini mukarram qilib yaratdik) va “Laqad halaqnal insana fi ahsani taqvim” (Darhaqiqat, insonni chiroyli qomatda yaratdik) oyatlarini qoʻllab boʻlmaydi”. Bundan kelib chiqadiki, komillikdagi birlamchi omil inson ruhi va maʼnaviyatiga oid boʻlgan qadriyatlar bilan bogʻlik ekan. Ushbu kitobda Aziziddin Nasaviydan quyidagi jumla keltiriladi: “...komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi toʻrt narsa kamolga yetgan boʻlsin: yaxshi soʻz, yaxshi feʼl, yaxshi axloq va maorif”.

Eʼtiborli tomoni shundaki, Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlarining aksariyatida va xususan, futuvvatda jism tarbiyasiga alohida eʼtibor berilgan. Jism ruhni fano olamidan baqo olamining yuqorisiga olib chiqilishida vosita deb qaralgan. Temuriylar davrida yashab, ijod qilgan Husayn Voiz Koshifiy barkamollik shartlariga jism tozaligini ham kiritadi. Bu tozalik esa yuz-qoʻlni yuvish bilan bitmaydi. Jismning bulgʻanishi harom luqma yeyish bilan ham sodir boʻlib, bunday shaxslarga kamolot yoʻlida sirlar ochilmaydi. “Haromxoʻrlik – futuvvat rishtasini

uzishdir" [2; 18-b]. Xalqqa yetgan odam Haqqa yetmay qolmas aqidasi "Futuvvatnomai sultoniy" asarining asosiy mazmunini tashkil etib, shaxsning jamiyatdagi oʻrnini belgilab olishiga yordam beradi. Husayn Voiz Koshifiy asarida, jumladan, shunday deydi: "Hakim Abdulmajid Sanoiy "Hadiqatul haqiqat" asarida debdurkim, suhbat adab natijasidir va adab hurmat natijasi va hurmat savfat natijasi va savfat koʻngil natijasi va koʻngil aql xazinasi va aql esa sir xazinasi, sir maʼrifat xazinasidir...". Maʼrifatning yoʻli esa oriflikdan boshlanadi. Oriflik barcha sirlarning kaliti ekan, demak komil inson masalasidagi yechimni undan izlamoq kerak. Orif kishi jamiyatda shunchaki shaxs emas. Unda nafaqat oʻqilgan bilimlar balki, uqilgan bilimlar ham namoyon boʻladi. Kishi zamonada olimdir, ammo koʻp yillik qadriyatlarning mohiyatiga yetib bora olmagan boʻlishi mumkin. Bunday kishilar masalaning faqat bir tomonini koʻradi. Komillikda ularning uqib ololmaganligi mukammallikdan toʻsib turadi. Dunyo tashvishlaridan holi, Alloh vaslining oshigʻi boʻlish mumkindir, irfonda soʻz qudratini tushunmaganligi uning uchun toʻsiq boʻlib qolaveradi. Shuning uchun ham, Abdulhakim Sharʼiy Joʻzjoniy "Tasavvuf va inson" asarida "Baʼzan orif soʻzi darvish va soʻfiyga nisbatan yuksakroq maʼnoda ham ishlatilgan" [3; 25-b]-deydi. Chunki, tasavvuf tariqatlarining barchasida Alloh vasliga yetishishning bir tomonlama yoʻli koʻrsatilgan. Orif esa qadriyatlar ahamiyatini anglaydi. Qadriyatlarning jamiyatdagi nufuzini eʼtirof etadi, uni talqin va tatbiq etadi. Xalq bilan birlik masalasi ong ustiga qurilgan boʻlib, orif taqdiri xalq taqdiri bilan birlashib ketadi. Orif Islom koʻrsatgan va paygʻambarimiz belgilab bergan yoʻldan ogʻishmaydi, sahobai kiromlar bajargan amallarni qadriyat deb bilib, toʻkis bajarishga harakat qiladi. Biladiki, Islomda komillik shariat amallarisiz boʻlmaydi. Zero, haqiqatga erishishning bosh yoʻli ham shariat edi. Tasavvufni ruh masalasi deb yurganlar shariatni islomning zohiri, ikkilamchi omil deb tushunishadi. Aslida usiz fiqhni tushunib boʻlmaydi. "Sharʼiy ahkomlar haqida soʻz borganida tariqat shayxlarining gaplari emas, faqihlarning gaplari oʻtishi ham buning oddiy haqiqat ekanini bildiradi". Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Tasavvuf haqida tasavvur" asarida islomdagi komillik masalasini tasavvuf tariqatlari misolida ochib beradi. Komillik, avvalo, birlik boʻlib, inson insonlar bilan, jamiyat bilan, tabiat bilan, olam bilan bir butunlikni hosil qiladi. Haqiqatni tushunishda ular boʻlinadi. "Moʻmin-musulmonlarni "shariat ahli", "tariqat ahli", "maʼrifat ahli" va "haqiqat ahli" deya turli toifalarga boʻlishdan kimlar manfaatdor". Holbuki, haqiqat bitta. Demak, komillikning oʻzi ham mukammal emas. Xoʻsh, unda biz qaysi komillikni qidirmoqdamiz? Gap shundaki, islomdagi komillik bu – paygʻambarimiz yurgan yoʻl, tanlagan usuldir. Dastur esa islomdir.

**Tahlil va natijalar.** Islom dini bilan tanishganimizga ham oʻn uch asrdan oshib qoldi. Bu davr mobaynida Markaziy Osiyo milliyligi bilan tanishgan dinimizga tegishli koʻplab qadriyatlar yuzaga keldiki, ular bugungi kunda milliy maʼnaviyatimizga, turmush tarzimizga, taʼlim, hatto, iqtisodiy munosabatlarimizga ham chuqur kirib bordi. Tinchlik, ijtimoiy odob qoidalari, axloqiy husn, til tarbiyasi kabilar komillikning asosiy shartlari boʻlib ulgurdi.

Avvalo, tinchlik masalasi Islomda yuksak oʻringa koʻtarilganini eʼtirof etmasdan iloj yoʻq. Hatto, din nomi bilan ham bu soʻzni tarannum etadi. Islom oʻzaro nizolar, har xil kelishmovchiliklarni qoralaydi. Uning muqaddas kitobida "...Agar ular sulhga moyil boʻlsa, Siz ham unga moyil boʻling..." [4; 78-b], – degan oyati dinning tinchlikka qanchalik moyil ekanligini koʻrsata oladi. Musulmon odam na niyatda, na amalda boshqalarga zarar keltirmaydi. Bu Turon xalqlarining ming yillik qadriyatlari bilan mushtarakdir. Shuning uchun ham, ularning duo va tilaklarida "tinchlik" soʻzi qayta-qayta uchraydi. Hadislarda shunday rivoyat qilinadi:

“Rasulullohdan soʻradilar. -Yo, rasululloh, musulmonlarning afzali qaysi kishidir? Rasululloh javob berdi. -Qoʻlidan va tilidan boshqa musulmonlar ozor topmagan kishidir” [5; 25-b].

Islomda tinchlikni targʻib qilinishi inson kamolotida muhim oʻrin tutishdan tashqari jamiyat rivoji va yurt obodligining asosiy mezoni deb qaralib, ushbu qadriyatlarni davlat darajasida muhokama etilishiga sabab boʻldi. Tariximizda temuriy shahzodalar oʻrtasidagi ixtiloflarni bartaraf etishda Islom ta’limotidan unumli foydalangan Xoʻja Ahror Valiyning yutuqlariga e’tibor qiladigan boʻlsak, Naqshbandiya tariqatidagi yangicha yondashuvni kuzatamiz. Halol mehnat va undan keladigan huzur-halovatga asoslangan tariqat mezoni komil inson talabida siyosat darajasiga koʻtarilgan. Komil inson talabi, yuqorida ta’kidlaganimizdek, obod maskan bilan bevosita bogʻliqdir. Oʻzaro urushlar mavjud joyda tinchlik yoʻqoladi. Tariqatdagi ushbu islohotchilik, avvalo, davr talabi boʻlib, hukmdorlarda kechirimlilik xislatini uygʻotishi lozim edi. “Gunoh qanchalik katta boʻlsa ham, kechirishning savobi undan ham kattaroqdir” [6;12-13-b].

Tinchlik dini hisoblangan Islomda axloq va odobni barcha soha toifa vakillari orasida keng targʻib qilishga harakat qilinadi. Islomda barcha amallar Alloh uchun emas, aslida insonning oʻzi uchun ekanligi uqtiriladi. Darhaqiqat, odob amallarimiz va axloqiy me’yorlarimiz haqida puxta oʻylab koʻrsak, ijtimoiy mavjudot sifatida jamiyat orasida yashashimiz uchun zarur boʻlgan holatlarni koʻramiz. Faqatgina uning mohiyatiga hamma ham yetib bora olmaydi. Ba’zilar uni, aynan, Alloh uchun qilyapman, deb oʻylaydi. Buyuk Zot uchun bu amallarning zigʻircha ham ahamiyati yoʻqligi, unga muhtoj emasligi, aslida oʻzi uchun, kamoloti uchun kerakligini anglaganda Ollohni naqadar moʻtabar ekanligini tushungan boʻlardi. Islom odobi tinchlik va hamjihatlikka da’vat boʻlib, bu uning oʻzak xususiyatidan kelib chiqqan. “Bizning tilimizda “odob” tarzida talaffuz qilinishga odatlanib qolingan arabcha “adab” soʻzi aslida “ma’daba” oʻzagidan olingandir. Ma’daba esa odamlar da’vat qilingan ziyofatni anglatadi. Odob ham odamlar doimo da’vat qilingan ma’naviy ma’daba –ziyofat boʻlgani uchun shu nomni olgan” [7;45-46-b].

Kamolotga intilayotgan inson uchun xulq husndir. Noodatiy maxluqlar insonlarda hadik va hayratni oshirganidek, jamiyatda badfe’llik ham yaqqol koʻzga tashlanadi va odamlarda salbiy taassurot uygʻotadi. Islom ta’limotidagi axloqiy qarashlarda inson ruhiy kamoloti birinchi oʻringa qoʻyiladi. Bu jism kamolotini inkor etish emas, albatta. Kattaga hurmatda, kichikka izzatda boʻlish, ota-onani hurmat qilish, dunyo boyliklariga hirs qoʻymaslik, birovning moliga koʻz olaytirmaslik, ayollarni zaifa deb bilib, ehtirom koʻrsatish kabilar ijtimoiy odob qoidalari boʻlib, insondan ruhan va ma’nan yetuklikni talab etadi.

XV va XVI asr boshlarida yashab oʻtgan Husayn Voiz Koshifiy oʻzining “Futuvvatnomaiy Sultoniy yoxud javonmardlik” asarida tariqat ahli odoblarini sanab oʻtar ekan, aynan musulmon kishisining xulqini ta’riflaydi. Aslida bu milliy mentalitetimizdan tashqarida emas. Xususan, «Bilgilki, odamzodning sharafi nutqi bilan va nutq odobiga rioya qilmagan odam bu sharafdan bebahradir. Soʻz hamma vaqt savob uchun ishlatilishi, toʻgʻri va haqqoniy boʻlishi kerak. Agar shunday boʻlmasa, jim turgan ma’qul»[8; 34-36-b.] degan xulosasidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, xalqimiz til tarbiyasi va nutq odobida ham chuqur mulohazakor boʻlishgan. Aslida tariqat odobi sifatida keltirilgan ushbu lafz ijtimoiy odob qoidalarida ham aynandir.

Kamolot deganda jisman sogʻlomlik, ruhan barkamollik va ma’nan yetuklik tushuniladi. Shuning uchun, farzand kamolotida ajdodlarimiz jism sogʻligidan tashqari ruh tarbiyasi ham muhimligini e’tirof etishgan. Ayniqsa, tasavvufda ruhiy tarbiyaga alohida e’tibor berilganini

koʻramiz. Asosan hol ilmi boʻlgan tasavvuf komil insonni tarbiya etar ekan, bunda jamiyat koriga yaraydigan, el ardogʻidagi insonni koʻradi. Ayniqsa, Naqshbandiya tariqatining asosi ham shu edi. Xoja Abduxoliq Gʻijduvoniydan meros boʻlib kelayotgan Naqshbandiya tariqat dasturidan oʻrin olgan "Xilvat dar anjuman"da Haq bilan holi boʻlish malakasiga ega boʻlgan soʻfiyning xalqdan ajralishini xohlamaganini koʻrishimiz mumkin. Bundan kelib chiqadiki, komillik xalq bilan roʻy beradi. Xalqsiz Haqqa yetishga harakat qilish Tangri Taoloning oʻziga ham xush kelmaydi. Haqqa yetishsa-yu undan xalqqa manfaat yetmasa, ruhiy kamolot mukammal boʻlmas. "Komillikning oliy belgisi Haq yoʻlidan borib, xalqqa foyda keltirishdir. Kishi oʻz soʻzi, amaliy ishlari, niyati bilan odamlarga qanchalik naf keltirsa, yomonlarni toʻgʻri yoʻlga solsa, Haq yoʻlida fido boʻlsa, u shuncha komildir" [9; 17-bet.].

Komillik bevosita oiladagi tarbiya bilan bogʻliq boʻlib, kishi jamiyatga oiladagi tarbiyasi bilan chiqadi. Bolaning jamiyatdagi oʻzini tutishiga qarab oilasiga baho berish mumkin. Oilalarimizdagi tarbiya ham Islom qadriyatlaridan kelib chiqadi. "Oilada shakllangan oʻzbek millatiga xos boʻlgan muomala madaniyati, mehr-oqibat, muruvvat, andisha va or-nomus kabi odob-axloqqa oid his-tuygʻular nafaqat tarbiya vazifasini oʻtaydi, balki insoniy qadriyatlar va fazilatlarning namoyon boʻlishida, komil insonni shakllantirishda muhim rol oʻynaydi" [10; 5-b.]. Qadriyatlarda insonlarning maʼnaviyati, oʻy-xayollari, orzu-istaklari namoyon boʻladi. Ularni yanada qadrliroq qiladigan, qadrini tanitadigan maskan bu-oiladir, qadriyatga yetkazuvchi vosita esa tarbiyadir. Shuning uchun ham, sharq oilalarida asosiy eʼtiborni tarbiyaga qaratishadi. Tarbiyamiz esa, asosan, Islom taʼlimotiga asoslangandir. Hatto, shariat hukmlari ham dunyoviy davlat qonunlaridan tarbiya masalasiga ogʻishganligi bilan farq qiladi. Qadriyatlarimizda shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishdan tashqari ilohiy masalalarga ham katta eʼtibor beradi. "Allohning suygan bandasi" tushunchasida asosan moddiy emas, balki ruhan yetuklik eʼtirof etilgan boʻlib, xalqimiz bu iborani qalban Allohga yaqin boʻlgan insonlarga nisbatan ishlatishadi. Jannat ilinji, Allohning rizoligi musulmon kishisining har qadamdagi orzusidir. Oila esa tarbiyada ham buni esdan chiqarmaydi. Uni vosita qilib, bola tarbiyasining mukammal boʻlishiga harakat qiladi.

Globallashuv jarayoni barcha jabhalarga taʼsir qilayotgan bugungi kunda yosh avlodni unga qarshi qurollantirish foyda bermay qoʻydi. Tarixdan bunga misollar juda koʻp. Masalan, taraqqiy etayotgan dunyo bilan Yaponiyaning tanishuvi uning taʼlim tizimiga, milliy qadriyatlariga qanchalik taʼsir qilib, shok holatga tushirganini tarixdan yaxshi bilamiz. Bu matonatli xalq bunga qarshi kurasha oldi. Bizda ushbu muammo dolzarb emas,-deb ayta olmaymiz. Bugungi kun avlodida milliy qadriyatlar bilan toʻyintirilgan, tarix bilan qurollantirilib, zamon bilan hamnafas yashay olish koʻnikmasini shakllantirish lozim. Buning uchun ularda milliy qadriyatlarimiz, Islom taʼlimoti komillik uchun qanchalik asosli ekanligini isbotlashimiz kerak boʻladi. Avvalo, milliylik mezonlari mukammal tarixiy ustqurma ustida barpo etilgani, Islom boqiy dunyo fazilatlari foniy dunyodagi komillik evaziga ekanligini, komillik esa keng tushuncha boʻlib, jism va ruh barkamolligi uygʻun ekanligini tushuntirish zarur.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, bugungi kun yoshlarida komillik tushunchasini shakllantirishda islom dining oʻrni beqiyos. Islom bilan bogʻliq boʻlgan qadriyatlar ong va shuurimizga shunchalik singib ketganki, zamonaviy dunyo boʻhronlarida uni yoʻqolib ketgan deb xato qilamiz. Aslida u shuurimizning qaysidir qavatlarida yashab turibdi. Faqat unga ozgina madad va imdod zarur. Islomni eʼtiqoddan tashqari turmush tarzi(keng koʻlamli tushuncha

sifatida), ma'naviyat mezoni, axloq, odob deb tushuntirish, zamon bilan hamnafas yashamoqchi bo'layotgan bolaga xalaqit bermaydi. Aksincha, to'ldiradi. Ushbu din o'zining ijtimoiy-falsafiy mohiyatiga ko'ra, falsafiy nuqtai nazardan ezgulikka asoslangan insonparvarlik g'oyalaridan oziqlangan holda shakllangan komil inson g'oyasini o'rtaga qo'yadi. Yosh avlodga shu g'oyani singdirish va bunda oiladan unumli foydalanish darkor. Chunki, oila o'zbeklarda hali-hanuz qadriyatlar o'chog'i vazifasini o'tab kelmoqda.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Abdulhamid Shar'iy Jo'zjoniy. Tasavvuf va inson. "Adolat". Toshkent. 2001.
2. Imom Ismoil al-Buxoriy. Sahihi Buxoriy. 1-jild. www.ziyo.com kutubxonasi. 2007.
3. Komilov N. Tasavvuf. "MOVAROUNNAHR-O'ZBEKISTON". 2009.
4. Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug'ati. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T. 2009. 200-bet.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. "NIHOL-NASHR" nashriyoti. 2019.
6. Qur'oni Karim.// Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tavsiri. 7-nashr. 2021.
7. Farmonova M. Qadriyatlar-ma'naviy kamolot asosi. Ilmiy-uslubiy qo'llanma. "TASVIR NASHRIYOT UYI". 2019.
8. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomaiy Sultoniy. "O'ZBEKISTON" NMIU. 2019.
9. Ganiyev E. STAGES OF DEVELOPMENT AND IMPACT ON SOCIAL LIFE OF AN INFORMED SOCIETY IN UZBEKISTAN //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 17-20.
10. Mavlanovna A. M., Kurbanovna M. M. Socio-philosophical problems of culture and marginal spirituality //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 3. – С. 2579-2583.
11. Rizaev I. Liberalization of the social system: constructive and destructive aspects //TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research. – 2021. – Т. 10. – №. 4. – С. 58-64
12. Usmonov F. N. The place of rational and creative thought in turning the virtuality into reality //Paradigmata poznani. – 2014. – №. 2. – С. 31-33.
13. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 45-48.
14. Muhamadiyev H. VIRTUALLIK YANGI FALSAFIY KATEGORIYA SIFATIDA //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – №. 2. – С. 59-59.
15. Мардонов Р. С., Ризаев И. И. Проблемы в инновационном развитии (на примере Узбекистана) //Географические и экономические исследования в контексте устойчивого развития государства и региона. – 2022. – С. 244-246.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 2 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).